



**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA UY-RO‘ZG‘OR BUYUMLARI
LEKSIKASINING LEKSIK-SEMANTIK MAYDONI**

Abdumutalova Dilnoza Davronbek qizi

Andijon davlat chet tillari instituti,

Ingliz tili va adabiyoti fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: Muqumjon Axunov Muhammadaminovich

(PhD) filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

E-mail: muqumjon.axunov@bk.ru

Tel: +998979977443

**LEXICAL-SEMANTIC AREA OF HOUSEHOLD GOODS VOCABULARY
IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES**

Abdumutalova Dilnoza

Student of Andijan State

Institute of Foreign Languages

Academic supervisor: Mukumjon Akhunov

(PhD) doctor of philosophy in philology,

associate professor

ANNOTATSIYA:

Ingliz va o‘zbek tillarida uy-ro‘zg‘or buyumlari leksikasining leksik-semantik maydoni va ularning tarkibiy tuzilishi va shu bilan bog‘liq bo‘lgan semantikasini o‘rganish. Shu asosda ularni Ingliz va o‘zbek tillarida uy-ro‘zg‘or buyumlari leksikasining leksik-semantik maydonini so‘zlar bilan qiyoslash, har ikkala til uchun umumiy bo‘lgan xususiyatlarni umumlashtirish va shu asnoda qiyoslanayotgan tillarning har biriga xos bo‘lgan xodisalarni ochib berishdir.

Kalit so‘zlar: leksik maydon, semantik maydon, uy-ro‘zg‘or, ibora, lingvokulturologiya.



ABSTRACT:

To study the lexical-semantic field of the lexicon of household items in English and Uzbek and their structural structure and related semantics. On this basis, they are compared with the lexical-semantic field of the lexicon of household items in English and Uzbek languages, summarizing the features common to both languages, and in this context, the phenomena specific to each of the compared languages. is to reveal.

Key words: lexical field, semantic field, household, idiom, linguoculturology.

Tilda inson omilining yetakchilik mohiyati, umuman, til haqidagi fanda antroposentrik yondashuvning asosiy tamoyilga aylanishi tilshunoslik rivojlanishining hozirgi bosqichida soʻz boyligi, umuman, leksik sath masalasi inson hayotida muhim ahamiyatga ega ekanligi, jamiyatdagi barcha narsa va tushunchalar soʻz orqali ifodalanishi eʼtirof etilib, har jihatdan tadqiq etila boshladi.

Til leksikasini kishilik jamiyatining maʼlum bir tomonlari bilan bogʻliq tarzda yagona kategorial semantika bilan birlashtiradigan leksiksemantik maydonlar shaklida aks ettirish muhim jihat hisoblanadi. Oʻzbek tilshunosligida H.Neʼmatov, A.Nurmonov, E.Begmatov, R.Rasulov, T.Mirzaqulov, O.Bozorov, R.Safarova, B.Qilichev, M.Narzieva, D.Hojieva kabi qator tilshunoslarning ilmiy tadqiqotlarida maydon nazariyasi muammolari, oʻzbek tili leksikasi borasida ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Semantik maydon sifatida tadqiq qilish asoslari oʻrganildi. Ushbu bobda semantik maydon (SM), leksik-semantik guruh (LSG) tushunchalariga munosabat bildirildi, oʻzbek tili leksik-semantik guruhlarini mikromaydon sifatida tadqiq qilishda turkiy tilshunoslarning leksikani ideografik oʻrganish borasidagi uzoq yillik anʼana va tajribalari bebaho nazariy va amaliy manba boʻla olishi asoslab berildi.

Tarixan bizga maʼlumki, insoniyat ibtidoiy toʻda davridan buyon ham uy-roʻzgʻor buyumlarini yasashgan va ulardan foydalanishgan. Keyinchalik esa ular yanada takomillashib, foydalanishga qulay tarzda qayta ishlanib kelavergan. Hozirgi kunga kelib esa uy-roʻzgʻor buyumlari bejirim, qulay va chidamli bir koʻrinishga keltirildi. Negaki inson aqli takomillashuvi hayot tarzining tubdan yaxshilanishiga koʻmak



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th April, 2025

berdi. XI asrda ham odamlar sivilizatsiyadan ancha yiroqda bo'lishlariga qaramay, turli xil uyro'zg'or anjomlaridan foydalanganlar. Jumladan, qomusiy olim Mahmud Koshg'ariy qimmatli asarida ushbu buyumlarning anchagina qismini berib o'tadi va ularning asl kelib chiqish o'zagini izohlashga harakat qiladi. Masalan, qazan – ovqat pishirishga mo'ljallangan buyum. M. Koshg'ariy lug'atida ashich so'zi —qozon ma'nosini bildirgan¹.

L.Budagov lug'atida qazg'an,kazan, V.V.Radlov lug'atida yog'ochdan ishlangan qozon quyadigan qolip² deb izoh beriladi. Jondor shevasida qo'llaniladigan uy-ro'zg'or buyum nomlarining ham o'ziga xos leksikasi bor.

Xususan, ushbu shevada qo'llanuvchi buyum nomlari etimologiyasiga diqqat qaratadigan bo'lsak, faqatgina o'z qatlamga mansub bo'libgina qolmay, o'zlashma qatlamga oid uy-ro'zg'or buyum nomlari talaygina. Jondor shevasida iste'molda bo'lgan buyum nomlari orasida fors-tojik tilidan o'zlashgan so'zlar katta foizni tashkil qiladi.

Kosa - Piyoladan kattaroq, asosan suyuqlik va turli ovqatlar solib ichish uchun ishlatiladigan idish. Jondor hududida ushbu so'z suyuq taomlar solish uchun ishlatiladi.

Jo'rop - Supurish-sidirish, tozalash uchun mo'ljallangan ro'zg'or buyumi. Adabiy tildagi varianti-supurgi.

Chorshoxa-[f-to'rt shoxli] to'rtta egri sanchig'i bo'lgan, paxta, xashak kabilarni olish, surish uchun ishlatiladigan uzun sopli asbob.

Oftoba - [f. – ko'za, obdasta] sheva so'z hisoblanib, suv quyish uchun mo'ljallangan buyum.

Piyola- [f. – suv ichiladigan yassi kosacha] Tubidan yuqoriga tomon kengayib boradigan, kosadan kichik, taglikli idish (asosan choy ichish uchun ishlatiladi).

Dasturxon- [f. – ovqat qo'yiladigan mato] O'rta yozib, ustiga ovqat qo'yiladigan maxsus mato, ro'zg'or buyumi.

Choygardon-[f.] Suyuq taomlarni suzib olish uchun mo'ljalgangan ro'zg'or buyumi. Jondor shevasida ushbu buyumning "cho'mich"varianti ham qo'llaniladi.

¹ Rajabov N. O'zbek shevashunosligi.Darslik.Toshkent:O'qituvchi,1996

² Л.Будагов.Сравнительный словарь турецко- татарских наречий.1869



LAGAN - [f. – tog'ora, idish] Asosan, kir yuvishga mo'ljallangan idish sifatida qo'llaniladi. Shu kabi bir qator uy-ro'zg'or buyumlari nomlarining etimologiyasiga diqqat qaratadigan bo'lsak, Jondor shevasida qo'llaniladigan ushbu buyum nomlarining ko'pchiligi fors-tojik tilidan o'zlashgan so'zlardir. Aynan bugungi kunda ham ushbu hududda tojik tilida so'zlashuvchi aholi vakillari istiqomat qilib kelayotganidan dalolatdir.

Yuqorida ko'rib chiqilgan turkiy tillardagi uy – ro'zg'or leksikasi haqida quyidagicha umumiy xulosalarni chiqarish mumkin: Turkiy tillardagi uy-ro'zg'or leksikasi turkiy xalqlarning tarixiy aloqa va munosabatlari, etnik kelib chiqishlari va tillarning tarixiy taraqqiyoti bir-birlari bilan chambarchas bog'langandir. Shuning uchun uy-ro'zg'or leksikasi ba'zan fonetik farqlarni hisobga olmaganda o'choq, qozon, tovoq, o'qlov, pichoq, elak, kurak, ko'rpa, yostiqlik, chelak, tesha va boshqalar turkiy tillarning hammasi uchun xos bo'lib, ular umummushtarak turkiy so'zlardir.

Shuning uchun ham bu so'zlar shu tillarning asosiy manbai ham hisoblanadi. Shuningdek, bu leksik qatlam o'zbek, uyg'ur, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, turkman tillari uchun umumdialektal so'zlar bo'lib, shu tillarning shevalarida ham mavjuddir. Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, Jondor shevasida qo'llaniladigan uy-ro'zg'or buyum nomlari qadimdan til tarixida mavjud bo'lgan leksik qatlam bo'lib, uning ildizi eski turkiy yozma yodgorliklarga borib taqaladi. Chunki ular xalq hayoti bilan hamnafas va hamqadam holda rivojlanib bormoqda. Uy-ro'zg'or buyumlari atamallari til leksikasini boyituvchi manbalardan biridir. Aynan Jondor shevasida qo'llaniladigan uy-ro'zg'or buyum nomlari o'zlashma qatlam hisobiga boyib borgan.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Abduazizov A. A. "Hozirgi zamon ingliz tili nazariy fonetikasi". Toshkent, 1986. 60-63 betlar
2. Azizov O. A. Tilshunoslikka kirish. Toshkent. 1963.
3. Buranov Dj. B., Yusupov U. K., Iriskulov M. T., Sadikov A. S. Grammaticheskie strukturi angliyskogo, uzbekskogo i russkogoyazikov. Tashkent, 1986. 70-bet
4. Karimov Sh. K. «Tilshunoslikka kirish» kursidan praktikum. T., 1987. 14-bet
5. Kuchqortoev I., Kuchqortoeva R. «Tilshunoslikka kirish». T., 1976. 166-b



E CONF SERIES



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfséries.com

24th April, 2025

6. Kuchqortoeva R. «Tilshunoslikka kirish» kursidan maishlar. T., 154-b 1989.

7. Mirzaev M., Usmonov S., Rasulov I. Uzbek tili. Toshkent, 1978. 125-b

8. www.ziyonet.uz

9. www.wikipidea.com